

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

O'ZBEKISTONDA KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIVAVIY HISOBOTLAR TUZILISHINING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xamrayev Elyorbek Erkinovich

O'zbekiston respublikasi Bank moliya akademiyas tinglovchisi

Annotatsiya:

Ma'lumki, hozirgi kunda amaliyotda moliyaviy hisobotlar asosida milliy standartlar asosida tuzilib, xalqaro standartlarga transformatsiyalash jarayoni amalga oshiriladi. Shu sababli, O'zbekistonda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni Xalqaro standartlar asosida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzish tartibi bo'yicha batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, buxgalteriya hisobi milliy standartlari, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

KIRISH

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan korporativ boshqaruv tizimidagi sub'ektlarda 2015 yildan boshlab milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga transformatsiya qilish hamda uni auditning xalqaro standartlari bo'yicha auditorlik tekshiruvidan o'tkazib, uni nashr qilish majburiyati belgilangan edi[3].

Bu bo'yicha muhtaram Prezidentimizning 2020 yil 14 fevraldagi 4611- sonli Qaroriga asosan, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish lozimligi belgilangan.

Yirik soliq to'lovchi tashkilotlar moliyaviy hisobotlarini sho'ba korxonalar har yili moliyaviy hisobot shakllarini tuzish maqsadida bosh korxonalar ma'lumotlari yig'ma shaklda tuzishni belgilab beradi.

ASOSIY QISM

Odatda, quyidagi hollarda moliyaviy ma'lumot to'plash talab etiladi:
1. Kompaniyalar guruhining konsolidatsiyalashtirilgan (umumlashtirilgan) buxgalteriya hisobotlarini tayyorlash. Guruhning konsolidatsiyalashtirilgan moliyaviy jadvallarni, ushbu guruhni tashkiletuvchi bir-biri bilan bog'liq bo'lgan



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

tashkilotlar bilan bog'liq bo'lgan qonunchilik hujjatlarida tartibga solinadigan moliyaviy hisobot konsolidatsiyasi jadvallarni tayyorlash asosiy tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladi;

2. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) muvofiq tayyorlangan moliyaviy (buxgalteriya) hisobotlar shaklida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq tayyorlangan moliyaviy (buxgalteriya) hisobotlar shakllari o'zgartiriladigan moliyaviy ma'lumotlarning o'zgarishi;

3. Moliyaviy ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv hisobotlarini qulay vatushunarli shaklda shakllantirish, yetarli boshqaruv maqsadlari.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot (KMH). Moliyaviy holat to'g'risida KMH tuzishdan oldin quyidagi bosqichlardagi ishlar amalga oshiriladi:

1- bosqich. Sho'ba kompaniyasi (ShK) xarid sanasida va hisobot sanasida sof aktivlari (SA) qiymatini hisoblash.

Ko'rsatkichlar	Xarid sanasida	Hisobot sanasida
Aksiyadorlik kapitali	X	X
Emission daromad	X	X
Qayta baholash rezervi (ShK MHH bo'yicha)	X	X
Taqsimlanmagan foyda	X	X
+/- taqsimlanmagan foyda summasiga korrektirovka	-	(X)
+/- adolatli qiymatiga korrektirovka	X/(X)	X/(X)
+/- muddati uzaytirilgan soliqqa korrektirovka	X/(X)	X/(X)
+/- boshqa korrektirovka (hisob siyosati, xatolar)	X/(X)	X/(X)
Jami	X	X

2- bosqich. Gudvil hisobi.

1) Xarid sanasida:

Xarid sanasida gudvil = Bosh kompaniyaga (BK) investitsiya + xarid sanasida nazorat qilinmaydigan qatnashish hissasi (NQQH) – xarid sanasida sof aktivlar (SA).

2) Hisobot sanasida:

Hisobot sanasida gudvil = Xarid sanasidagi gudvil – xarid sanasidan keyin gudvil qadrsizlanishi.

3- **bosqich.** Nazorat qilinmaydigan qatnashish hissasi (NQQH) hisoblash.

1) Xarid qilish sanasida

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

NQQH xarid qilish sanasida hisoblashning ikkita metodi amal qiladi.

Xarid sanasida ShKning SA lariga mutanosib ravishda:

- Xarid qilish sanasida $NQQH = \% NQQH \times Xarid\ qilish\ sanasida\ SA$ Adolatli qiymati bo'yicha (to'liq gudvil)

Shunday qilib konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar asosida moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishda xalqaro standartlarni qo'llash ularni yanada sifatini oshirishga olib keladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda yirik sub'ektlar o'zlarining moliyaviy hisobotlarini milliy standartlar asosida tuzib, undan so'ng xalqaro standartlarga transformatsiya qilinib kelmoqda, lekin aynan moliyaviy hisobotlarni konsolidatsiyalashgan shaklda tuzishni xalqaro standartlar asosida amalga oshirish yo'lga qo'yilmagan.

Shu sababli, konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni tuzishda 5 ta bosqichdan, ya'ni,

- 1- bosqich. Sho'ba kompaniyasi (ShK) xarid sanasida va hisobot sanasida sof aktivlari (SA) qiymatini hisoblash;
- 2- bosqich. Gudvil hisobi;
- 3- bosqich. Nazorat qilinmaydigan qatnashish hissasini (NQQH) hisoblash;
- 4- bosqich. Guruhning taqsimlanmaydigan foydasi (GrTF)ni hisoblash;
- 5- bosqich. Guruhning qayta baholash rezervi (QBR)lardan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Buning natijasida, yirik sub'ektlarning konsolidatsiyalashganshakldagi moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotini xalqaro standartlar asosida tuzishdagi muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nasreddinov S.S. Konsolidatsiyalashtirilgan moliyaviy hisobotuzishning nazariy va uslubiy masalalari ("Dori-darmon" davlat aksionerlik uyushmasi misolida) iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati, Toshkent: 2004. -22 b.;
2. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish (MHXS va ilg'or tajribalar asosida). Monografiya. T.: "Turon", 2017 y.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

3. Toshmamatov N., Ismanov I.N., Xojiev A.S., buxgalteriya predmetining ba'zi masalalari haqida. Zamonaviy fan va ta'lim muammolari. № 12-2, 2019, 88-93 p.
4. Ismanov I.N., Muydinov E. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida daromadni tan olishga yangicha yondashuv. MOLIIYA VA BANK ISHI. №5, 2020, 86-93 bet.
5. Rashidov Dilovar Najmiddinovich, & Xolboev Yigitali Avganovich (2022). KORXONA VA TASHKILOTLARDA IJTIMOIIY HIMOIYA GA MUHTOIJ SHAXSLAR UCHUN ISH O'RINLARINI YO'NALISHLAR KESIMIDA ZAXIRALASHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH. Transformatsiya modeley korporativnogo upravleniya v usloviyax sifrovoy ekonomiki, 1 (1), 73-78. doi: 10.24412/cl-36899-2022-1-73-78
6. Ismanov I.N. Buxgalteriya hisobi tizimining moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga transformatsiyasining zaruriyati. Iqtisod va moliya. №3,2017,38-44



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E- CONFERENCE
SERIES